



ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH TAJRIBASI

To‘ychiyeva Mahfuza,

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
O‘zbek adabiyoti ta’limi kafedrasi dotsent, ped. fan. fals. dok. (PhD)*

mahfuza.t.u.@mail.ru

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207517>

***Annotatsiya.** Maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalardan bo‘lgan Blum taksonomiyasining yaratilish tarixi, modernizatsiya qilinganligi, uni ta’lim jarayonida qo‘llash mexanizmi haqida so‘z yuritiladi. Bir asarni o‘rganish misolida qo‘llash ko‘rsatilib, o‘quvchilarda kreativ, ijodiy, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun tavsiyalar berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** dars, tahlil, yaratish, izohlash, adabiyot darsi, Blum taksonomiyasi.*

Rivojlangan mamlakatlarning ilg‘or tajribalarini, sinovdan o‘tgan yondashuvlarini milliy ta’limga olib kirish o‘qitish va o‘rganish sifatini o‘sishida, adabiyot darslarining samaradorligini oshirishda va sohani jahon standartlariga mos rivojlanishida, fanni o‘qitishda maqsadlarni soddadan murakkabga va aniqdan mavhumga qarab rejalashtirish uchun xizmat qiladigan Blum taksonomiyasi haqida so‘z ketganda, unda kognitiv ko‘nikmalar (bilish, tushunish, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish bilan bog‘liq ko‘nikmalar) quyi darajadagi ko‘nikmalar va yuqori darajadagi ko‘nikmalarga bo‘linishi aytiladi [1; 85] Yuqori darajadagi ko‘nikmalar quyi darajadagi ko‘nikmalarga qaraganda murakkabroq jarayonlarni o‘z ichiga oladi va o‘quvchilarda ularni shakllantirish uchun o‘qituvchidan kreativ yondashuvlarni talab qiladi. Shu bilan birga, quyi darajadagi ko‘nikmalarni shakllantirmasdan turib yuqori darajaga o‘tish mumkin emas.

Blum taksonomiyasi o‘tgan asrning 50-yillari o‘rtalarida AQSHlik Benjamin Blum tomonidan o‘rtaga tashlangan o‘zlashtirish ko‘rsatkichi mezonlaridir. Blum taksonomiyasining mohiyati o‘qitish va o‘rganish maqsadi o‘rtasidagi mushtaraklikni qaror toptirishdan iborat bo‘lgan. XXI asr boshida AQSH ta’lim jamoatchiligi va faollari Blum taksonomiyasi mohiyatining o‘tgan asr o‘rtalarida anglashilgan qadriyatlar bilan o‘lchanmasligi kerak degan qarorga kelishadi va 2001- yilda taksonomiya bir guruh olimlar tomonidan qayta ko‘rib chiqiladi. Ularga Blumning hamkasbi Devid Krathvol (birinchi tizimni yaratgan guruhning yetakchi olimi edi) va Blumning shogirdi Lorin Anderson rahbarlik qildi. Birinchidan, ular taksonomiyani modernizatsiya qilishdi, ikkinchidan, uni o‘qituvchi va metodistlar uchun qulayroq



qilishdi. Dastlabki piramidada quyidan yuqoriga shakllanuvchi ko‘nikmalar: bilim, tushuncha, qo‘llash, analiz, sintez, baholash bo‘lsa, yangilangan taksonomiyada quyidan yuqoriga: yod olish (eslab qolish), tushunish, qo‘llash, tahlil qilish (analiz), baholash, ijod qilish (yaratish) bo‘ladi.

Quyi darajadagi ko‘nikmalar quyidagicha izohlanadi:

1. Yod olish (eslab qolish) - Mazkur ko‘nikma taksonomiyaning eng quyi

pog‘onasiga mansub bo‘lib, u ta‘limning komponenti sifatida o‘ziga xos o‘ringa ega, biroq ta‘lim mazmunini to‘liq qamrab olmasligi kerak. O‘quvchi ma‘lumotni eslab qoladi va uni qaytara oladi. Bu bosqichning asosiy xususiyatlari: - kim, nima, qachon, qayerda, qaysi, nega singari savollarga javob bera olish; - nomini aytish, ajratib olish, topish, moslashtirish, ro‘yxatini tuzish, qayta so‘zlab berish, tasvirlash singari amallari bajara olish.

2. Tushunish - o‘quvchi ma‘lumotni tushuntira oladi, boshqa shaklga sola oladi, talqin qila oladi va tasniflay oladi. Bu bosqichning asosiy xususiyatlari:

- o‘rganilayotgan hodisalarni solishtirib, o‘xshash va farqli tomonlarini ko‘rsata olish;
- o‘z talqinini bera olish;
- fikrni isbotlash uchun matndan misollar keltira olish;
- keyin nima bo‘lishi mumkinligini bashorat qila olish;

Tushunish ko‘nikmasi – o‘zi uchun tushunarli bo‘lgan axborotni boshqalarga tushuntirib bera olishdir deb izohlagan [3] Tushunishning olti qirrasini farqlab ko‘rsatadi

1. Tushuntirish- o‘quvchi javob yoki yondashuv nima uchun to‘g‘ri ekanini tushunishiga ishonch hosil qilish. O‘quvchi o‘z javobini tushuntiradi yoki asoslaydi, yoki o‘z harakat rejasini asoslaydi.

2. Talqin - o‘quvchi “to‘g‘ri javob”ni qidirish degan tuzoqdan va prinsipial javoblarni talab qilishdan saqlanishiga; o‘quvchi imkon qadar ko‘proq muhim faktlar va nuqtai nazarlarni qamrab ola bilishiga ishonch hosil qilish.

3. Maqsadli foydalanish- o‘quvchining asosiy ko‘rsatkichlari – bu aniq asosga tayanib ongli va nostandart fikrlash, o‘zini baholash va tartibga solish ekaniga ishonch hosil qilish; Haqqoniy baholash haqiqiy yoki modellashtirilgan auditoriyani, maqsadni, ijodiy ishni moslashtirish sharoitlari va variantlarini, realistik cheklovlarni va orqa fondagi shovqinni talab qiladi.



4. Tasavvur qamrovi - o‘quvchi g‘oyaning ahamiyati yoki mohiyatini bilishi, uning muhim va nomuhim jihatlarini farqlay olishga ishonch hosil qilish; O‘quvchilarni biroz orqaga chekinib, “Bu qanday ahamiyatga ega?”, “Bu bilimning qiymati nimadan iborat?”, “Bu g‘oya qanchalik muhim?”, “Bu g‘oya bizga nimadir bera oladi?” kabi savollarni berishga ruhlantirish.

5. Hamdardlik hissi- o‘quvchi olamda fikrlar va tuyg‘ular xilma-xilligini tushunishi uchun unda dunyoni turli rakurslardan turib ko‘ra olish qobiliyati rivojlanishini ta‘minlash;

6. O‘zlikni anglash - o‘quvchi o‘zining va boshqalarning tushunish chegarasini chuqur anglab yetishi; avvaldan shakllangan fikr va taxminlarini tan olishi; vijdonli bo‘lishi – o‘zi tushungan narsani bajara olishi va bajarishni xohlashiga ishonch hosil qilish.

3. Qo‘llash - o‘quvchi ma‘lumotni yangi hayotiy vaziyatlarda qo‘llay oladi. Bu bosqichning asosiy xususiyatlari:

- muammoli vaziyatlarni yecha olish;
- asar qahramonlarini boshqa vaziyatlarga solib ko‘ra olish;
- asarga o‘zgacha (alternativ) yakun bera olish.

Yuqori darajadagi ko‘nikmalarga quyidagilar kiradi:

4. Tahlil - Blum taksonomiyasining yuqori pog‘onalari orasida eng dastlabkisi axborotni tahlil qilish kompetensiyasini o‘z ichiga oladi. Tahlil qilish axborotni qismlarga ajratish demakdir. O‘quvchi murakkab tushunchani kichikroq qismlarga ajrata oladi va qismlar orasidagi bog‘liqliklarni izohlab bera oladi.

5. Baho berish - o‘quvchi mezonlar asosida biron-bir voqea-hodisaga o‘z munosabatini bildiradi. Axborotni baholash – bu bir axborotni boshqalaridan farqlay olish, tegishli farqni tasdiqlash haqida qaror qabul qila olish kompetensiyasidir. Asar qahramonlari xatti-harakatlarini oqlash (qoralash), asarga baho berish, taqriz yozish, asarni birovga tavsiya qilish uchun fikrlar bildirish bu bosqichga misol bo‘la oladi.

7. Yaratish - o‘quvchi o‘rgangan narsalari asosida yangi narsa yarata oladi. Asarga yangi obraz qo‘shish, yangi sarlavha qo‘yish, asar asosida ssenariy (hikoya, she‘r va hokazo) yozish, musiqa bastalash, asarga plakat yaratish, asar asosida savollar (testlar) tuzish, sahna asari qo‘yish, video suratga olish singari topshiriqlar bu bosqichga misol bo‘la oladi.

Amaldagi 6- sinf “Adabiyot” darsligida berilgan Alisher Navoiyning bir ruboiyisi [2; 68] misolida Blum texnologiyasini quyidagicha qo‘llash mumkin.



Har kimki suchuk so‘z elga izhor aylar,
Har nechaki ag‘yor durur yor aylar.
So‘z qattig‘i el ko‘nglini ozor aylar,
Yumshog‘i ko‘ngillarni giriftor aylar.

I. Bilish bosqichi

1. Ruboiyni ifodali o‘qish:

2. Lug‘at bilan ishlash

suchuk – shirin, ag‘yor – dushman, yor – do‘st, giriftor – band, asir

II. Tushunish bosqichi:

1. Matn mazmunini aytib berish. O‘quvchi o‘z so‘zlari bilan ruboiy matnini aytib berishi kerak bo‘ladi.

2. Ruboiyni sharhlash. Bu o‘rinda sharhlash II.1dagi jarayon bilan birga kichadi. Masalan: “So‘zlovchi agar yaxshi so‘zlar bilan gapirsa, o‘ziga nisbatan yomon munosabatda bo‘lgan inson munosabatini yaxshi tomonga o‘zgartirishi mumkin. Agar so‘zlovchi qo‘pol bo‘lsa, suhbatdoshini o‘zidan sovitishi mumkin. Bu munosabatning yomon bo‘lishiga olib keladi” kabi.

III. Qo‘llash bosqichi

1. Matndagi so‘zlarni ma‘nodoshlari bilan solishtirish

Qattig‘i- qo‘poli, yomoni; yumshog‘i- yaxshisi, shirini; el- xalq, inson, do‘st

Masalan: So‘z qattig‘i el ko‘nglini ozor aylar misrasida “qattig‘i” so‘zi o‘rnida “yomoni” qo‘llansa, ma‘noda qanday o‘zgarish bo‘ladi? Yomon so‘z tufayli ko‘ngil “ozor aylar” bo‘lishi tabiiy. Bu o‘rinda shoir qo‘pol so‘zlash haqida yozgan ekan so‘zning “qattig‘i” qo‘llangan.

IV. Tahlil bosqichi

1. Bu bosqichda o‘qituvchi podshoh, vazir, qariya Ali Safiy afsonani keltirishi mumkin: “Bir kuni shoh o‘ng qo‘l vaziri bilan shikordan qaytib kelayotganida, pastqam bir uyning oldida beli bukchaygan, hassaga tayangan kezi bir qo‘li oldinda tilanchilik qilib turgan qariyaga ko‘zi tushadi. Shoh vazirga ishora qilib deydi: – Hu anovi mo‘ysafidni ko‘rayapsanmi? Bizlarga yoshligimizda saboq bergan Ali Safiy degan ustozga juda o‘xsharkan-a?

Vazir: – Ma‘zur tuting, o‘sha qariya Ali Safiyning xuddi o‘zidir, dedi.

Shoh darg‘azab bo‘ldi: – Men yurt hukmdori, sen vazir bo‘la turib, bizga alifbodan saboq bergan ustozimizning shunday ko‘yga tushishiga sabab ne?!

— Men ustozga ko‘p bor maslahat soldim, unamadi. Yaxshisi, o‘zingiz bir so‘rab ko‘rmaysizmi? —dedi vazir.



Shoh otdan sakrab tushib, Ali Safiy hazratlarining oldiga borib, ko‘rishdi.

— Ustoz, bu ahvolotingizning boisi nedur? – deb so‘radi.

— To‘g‘ri, – o‘smoqchilab so‘z boshladi ustoz, – men sizlarga chin dildan, chin so‘zdan saboq berdim. Menga ham saboq bergan ustozlar ko‘p bo‘lgan. Ular ichida ikkitasi meni xush ko‘rib, doim ardoqlab yurardi. Biri nima deyishni o‘rgatardi, ikkinchisi esa nima demaslikni. Nima demaslikni bilaman-u, nima deyishni o‘rganishim kerak, – deb, birinchi ustozga qo‘l berdim, oqibatda shunday ko‘yga tushdim. Keyin anglab yetdim: nima deyishdan ko‘ra, nima demaslikni bilish donolik ekan. Navoiy o‘gitlaridan biri shunday: “So‘zni ko‘ngulda pishqormaguncha tilga kelturma, har nekim ko‘ngulda bor, tilga surma”. O‘quvchilarga qo‘pol so‘zlashi orqali pand yeganlar haqida qanday hikoyatlar, ertaklar borligi haqida so‘ralib, bir tush ta‘birni ikki xil aytib, biri qatl qilingan, biri mukofotlangan munajjimlar hikoyati ham eslatiladi. Ulug‘ mutafakkir so‘zning uning qanday aytilishi, ifodalanishiga ham diqqat qiladi. Halim tabiatli kishi yumshoq, kishi diliga ozor yetkazmaydigan so‘zni topib aytadi. Shuning uchun ham kimdir topib so‘zlaydi, kimdir qopib deyishadi. Bu, albatta, insonning fe‘l-atvori, saviyasi bilan bog‘liq. Kaykovus “sovuq so‘z bir tuxumdur, undin dushmanlik hosil bo‘lur” deyishi bilan haqli. Navoiy xuddi shu fikrlarni to‘rtlik shakliga keltirilgani aytiladi.

5. Baholash. Darslikda keltirilgan yana qaysi ruboiy mazmuni shu ruboiy bilan hamohang ekanligini topish va izohlash talab etiladi.

Ko‘nglungni orit barcha yomon xislatdin

Kim, yaxshi qiliq dalil erur rahmatdin.

Badxo‘ylik ul vahshat erur shiddatdin

Kim, elga xaloslik yo‘q vahshatdin.

Yoki

Xub el bila suhbat tutubon xub o‘lg‘il,

Yaxshini talab qilg‘il-u matlub o‘lg‘il.

Shirin so‘z ila xalqqa marg‘ub o‘lg‘il,

Yumshoq de hadisingni-yu, mahbub o‘lg‘il.

Ruboiylarda keltirilgan, ifodalangan g‘oyalarning nozik farqlarini izohlash lozim bo‘ladi.

V. Yaratish:

1. Bu bosqichda o‘quvchilarga, ruboiy mazmunini beruvchi hikmatlar, xalq maqollaridan topish topshirig‘i beriladi.

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



2. O‘quvchilar o‘zlari guvoh bo‘lgan hayotiy voqea, o‘qigan badiiy asar, ko‘rgan kino, multfilmlaridagi “so‘z qattig‘i” tufayli ozor chekkan qahramonlar haqida matn yozishadi va unda xalq maqolaridan foydalanishadi.

Shu tariqa Blum taksonomiyasini qo‘llash orqali o‘quvchini kreativ, mantiqiy fikrlash va samarali muloqot qilish, real hayotiy muammolarga yechim topa olishiga yo‘naltirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzayeva Zulxumor; Jalilov Komil. 2020. Adabiyot o‘qitish metodikasi. An‘anaviylikdan zamonaviylikka. – T.: Adabiyot. – B. 161.
2. Mirzayeva Z. I., Djalilov K. Q. 2022. Adabiyot [Matn]: 6-sinf uchun darslik. – T.: Respublika ta’lim markazi. – B. 224.
3. https://t.me/ikbol_ilxomovic_channel
4. <https://skillbox.ru/media/education/taksonomiya-bluma-chto-eto-takoe-i-zachem-ona-pedagogam-i-metodistam/>
5. <https://www.edweek.org/teaching-learning/opinion-heres-whats-wrong-with-blooms-taxonomy-a-deeper-learning-perspective/2018/03>
6. <https://tips.uark.edu/using-blooms-taxonomy/#gsc.tab=0>